

Orinboyeva Munisa Oybek qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Sa'natshunoslik fakulteti
Pedagogika va Psixologiya kafedrasи amaliy Psixologiya yonalishi talabasi*

Annotatsiya. Nikoh eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Nikoh o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy hodisa. Nikoh erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi. Oila jamiyatning dastlabki bo‘g‘ini sanaladi va davlatning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilada tug'ilib, tarbiya topayotgan yosh avlod jamiyatning, davlatning ertangi kunini, istiqbolini belgilab beradi.

Kalit so’zlar: kelin, nikoh shartnomasi, nikoh, jamiyat, Yevropa davlatlari, Sharq davlatlar.

Abstract. Marriage is the oldest form of moral relationship. Marriage is an inherently moral phenomenon. Marriage is an equal, free and voluntary union between a man and a woman, which is established by civil registry offices and serves the purpose of creating a family. The family is considered the first link of society and plays an important role in the development of the state. Because the young generation that is born and educated in the family determines the future of the society and the state.

Key words: bride, marriage contract, marriage, society, European countries, Eastern countries.

Аннотация. Брак является древнейшей формой нравственных отношений. Брак – это по своей сути нравственное явление. Брак – это равноправный, свободный и добровольный союз мужчины и женщины, который устанавливается органами записи актов гражданского состояния и служит цели создания семьи. Семья считается первым звеном общества и играет важную роль в развитии государства. Потому что молодое поколение, которое рождается и воспитывается в семье, определяет будущее общества и государства.

Ключевые слова: невеста, брачный договор, брак, общество, страны Европы, страны Востока.

Sharq davlatlarida ,xususan, O’zbekistonda oilaga va farzandga alohida e’tibor beriladi. Yevropa mamlakatlarining ham oilaga nisbatan o’ziga xos qarashlar mavjud. Nikohdan oldin ko’pgina yevropaliklar „Nikoh shartnomasi” tuziladi. Nikoh shartnomalari hozirgi davrda G‘arbiy Yevropa davlatlarida, AQSH, Kanadada ommalashgan. Bu tadbir, dastlab ming yillar ilgari Gresiya va Rimda kelib chiqqan, ya’ni erkak va ayol nikoh tuzishdan avval mulkiy munosabatlari - kelgusida

orttiradigan mulk va meros masalalari haqida kelishuvni rasmiylashtirishgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Mamlakatimizda 1998 yil 1 sentyabrgacha amal qilgan Nikoh va oila kodeksida er-xotin mulkining faqat qonuniy rejimi belgilangan edi. Oila mulkining tarkibi esa, asosan mebel, kiyim-kechaklardan iborat bo'lgani, ya'ni bo'linadigan narsa kamligi bois, mulkiy munosabatlarni boshqacha tarzda tartibga solishga zarurat yo'q edi. Biroq xususiy mulk munosabatlari rivojlanishi bilan er-xotin mulki tarkibi o'zgardi. Alovida mulki bo'lgan er yoki xotinning o'z mulkini o'zi tasarruf etishni xohlashi, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan yoki uy ishlari bilan band bo'lib, mustaqil daromadga ega bo'lman er-xotin manfaatlarini ham hisobga olish zaruratlari nikoh shartnomasining qonunga kiritilishini taqozo etdi.¹

O'zbekiston Respublikasi Preziden ti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldag'i «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori oila mustahkamligini ta'minlash, uning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyasidagi nufuzini oshirishga ko'maklashish hamda mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e'tirof etish uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida oilaning davlat va jamiyat muhofazasida ekanligi nazarda tutilgan bo'lsa, oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatları, nikoh shartnomasiga oid qoidalar Oila kodeksida belgilangan.

Men quyida oila mulkining muhofazasiga qaratilgan nikoh shartnomasi va uning qonunchiligidan kiritilishi hamda tavsifi haqida kengroq to'xtalmoqchiman.

Nikoh shartnomasi instituti dastlab 1998 yil 1 sentyabrdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida yoritildi va qonunchilikka kiritildi. Oila kodeksining VI bobi er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibiga bag'ishlangan.²

Nikoh shartnomasi nikohlanuvchi shaxslarning, er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvidir (OKning 29-moddasi). Endilikda qonuniy (rasmiy) mulk tartibi bilan birga mulkning shartnomaviy tartibiga ham o'rinn berildi. Ya'ni, er-xotin o'zlarining mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoki er-xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birqalikdagi, ulushli yoki alovida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqli ekanliklari belgilandi.

Alovida egalik qilish tartibi er-xotinning barcha mulkiga, uning ayrim turlariga, er-xotindan har birining mulkiga nisbatan belgilanishi mumkin. Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar ma'lum muddat bilan cheklanishi, masalan,

¹ www.ziyo.com

² www.ziyo.com

besh yil davomida ularning mulki bo‘lingan bo‘lishi, undan so‘ng umumiy bo‘lishi nazarda tutilishi yoxud hech qanday muddat bilan cheklanmasligi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy shartnomalardan biri sifatida nikoh shartnomasi shakli, mazmuni jihatidan FKning bitimlarga qo‘yiladigan umumiy talablariga javob berishi, yozma tarzda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi (OKning 30-moddasi) lozim. Shartnoma notarial tartibda tasdiqlanadi. Uni tasdiqlaganda, o‘zgartirish kiritilganda yoki bekor qilinganda davlat boji undirilmaydi.

Shartnoma nikoh qayd etilishidan avval yoki qayd etilganidan keyin - istalgan vaqtda tuzilishi mumkin; nikohgacha tuzilgan bo‘lsa, nikoh davlat ro‘yxatiga olingen kunidan, nikohdagi er-xotin tomonidan tuzilgan bo‘lsa, shartnoma notarial tasdiqlangan kundan kuchga kiradi. Nikohlanuvchilar shartnoma tuzganidan keyin, qachon nikoh tuzishlari lozimligi belgilanmagan. Biroq shartnoma qachon tuzilganidan qat’i nazar, faqat nikoh qayd etilgach, kuchga kiradi. Shartnoma tuzilgani, unga o‘zgartirishlar kiritilgani yoki bekor qilingani haqida er (xotin) o‘z kreditorlarini xabardor qilishi lozim.

Nikoh shartnomasining predmeti er-xotinning mulkiy munosabatlaridir. Nikoh tugatilgandagi mulkiy munosabatlar bundan mustasno. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar shartnoma predmeti bo‘lolmaydi.

Yevropa mamlakatlari uchun kelin tanlashda uning mol-mulki, tashqi ko‘rinishi, amali qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, Sharq xalqlari uchun esa kelning odobi, iffati, iymon-e’tiqodi va muomalasiga e’tibor qaratiladi.

Psixologlarning fikricha, qaynona kelin o‘rtasidagi murakkab munosabatlar jahoning barcha mamlakatlarida uchraydi. Ayrim mamlakatlarda bu muammoni hal qilishga erishilgani aytildi. Sharqda qaynona-kelin muammosi kuzatilsa, G‘arbda qaynona-kuyov muammosi bor. Latifalar orqali ayni damda o‘zimizda ham qaynona-kuyov muammolari jamiyatimizga singib borayotgandek, go‘yo.

Sulaymon orollarida kelin qaynonasi bilan bir uyda istiqomat qiladi. Ular o‘rtasida kamdan kam mojaro chiqadi. Buning sababi oddiy. Mahalliy urf-odatlarga ko‘ra, kelin va qaynona bir vaqtda xo‘jalikdagi ishni bajarishi kerak emas. Ya’ni, uy ishini yo kelin, yo qaynona bajarishi kerak. Mehnatning bu kabi taqsimlanishi urush-janjallarning oldini olishga xizmat qiladi.

Hindistonda turmushga chiqqan qiz qaynonasining har bir so‘zi o‘zi uchun qonun ekanini anglab yetishi kerak. Qaynona o‘ziga berilgan “huquq”ni suiist’emol qilish holatlari ham uchrab turadi. Bu o‘z navbatida, jinoyatga yetaklaydi. Vaziyat shu darajaga borib yetdiki, rasmiyalar qaynonalar uchun maxsus qamoqxona ochishga majbur bo‘ldi. To‘g‘rirog‘i, Dehlidagi “Tixar” qamoqxonasida qaynonalar uchun maxsus bo‘lim joriy qilindi. Qaynonalar qaysi gunohlari uchun ozodlikdan mahrum qilinadi? Birinchi navbatda, ta’magirlilik uchun. To‘g‘rirog‘i, kuyovning onasi kelindan qalin talab qiladi. Ayni shu narsa, ya’ni qalin berish Hindiston qonunlarida taqiqilanadi.

Ammo shunga qaramay ko‘pchilik ayollar eskicha an'analarga ko‘ra yashashni xohlashadi.

Ma'lumki, Hindistonda qadim-qadimdan kelinning oilasi kuyovning oilasiga qalin to‘laydi. Shu sababli ham qaynonalar “bu an'anaga sodiq qolish kerak”, degan fikr bilan yashaydilar. Tahlilchilarning fikricha, rasmiy statistikaga ko‘ra, har yili 5000–7000 qiz ta'magirlikning qurbaniga aylanadi. Ularning ko‘pchiligi oilasi qalin to‘lay olmagani uchun o‘z jonlariga qasd qilishgacha boradi. O‘z joniga qasd qilishga esa qaynonalarning zulmi majbur qiladi. Buning uchun qaynonalar sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilinib, maxsus qamoqxonaga yuboriladi. So‘nggi vaqtarda kelinlar qaynonalariga qarshi turishga intilishmoqda. Kelinlar “eng yaxshi himoya - bu hujum” aqidasiga amal qilishmoqda. Buning natijasi o‘laroq, qaynonalar ham birlashishga qaror qilishdi. Ayni damda o‘z huquqlarini himoya qiluvchi qaynonalar uyushmasi tashkil etilgan.³

Koreyada qadim-qadimdan “katta o‘g‘il ota-onasi bag‘rida qolishi kerak”, degan an'ana bor. Bu an'ana ota-onalar keksayganda katta o‘g‘il yordam berishini nazarda tutadi. Shu sababli ham katta kelin murakkabliklar bilan to‘qnash keladi. Tadqiqot o‘tkazgan tahlilchilarning fikricha, Koreyada qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlar hamon murakkabligicha qolmoqda. Hozirgiga qaraganda, an'analarga ko‘proq itoat qilingan 1974 yilda o‘tkazilgan so‘rovda qatnashgan qizlarning atigi 13,4 foizi katta o‘g‘ilga turmushga chiqish xohishi borligini aytgan edi. Ulardan hech kim yakka o‘g‘ilga turmushga chiqish niyati borligini aytmagan. 2010 yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari koreyslarning turmush tarzi o‘zgarmaganini oydinlashtirdi. Mustaqil bo‘lishga intiluvchi yoshlar qaynonaga itoat qilishni xohlamaydi. Bu o‘z navbatida, turli mojarolarga sabab bo‘ladi. Qaynona bir vaqtlar o‘z qaynonasiga bo‘ysingani kabi kelin ham o‘ziga xuddi shunday bo‘ysinishni istaydi. Biroq g‘arbona tarbiya ko‘rgan kelin qaynonaning xizmatkori bo‘lishdan o‘zini olib qochishga urinadi.

Meksikadagi vaziyatga havas qilsa arziydi. Bu mamlakatda qaynona kelin g‘avg‘osi yo‘q. Ular bir-birlari bilan o‘zaro dugonaga aylanib ketishlari aytildi. Kelin o‘z qaynonasiga nozik sirlarini aytishi odatiy holdir. O‘z navbatida, qaynona o‘g‘li va keliniga har tomonlama yordam berishga intiladi. Bu turli maishiy muammolarni hal qilishga va mojarolarning oldini olishga hissa qo‘shadi.

Italiya erkaklarining o‘z onalariga bo‘lgan muhabbati haqida ko‘p yozilgan. To‘ydan keyin ham ona alohida yashayotgan bo‘lishiga qaramay o‘g‘lining hayotiga aralashaveradi. To‘g‘ri, ayrim Sharq mamlakatlaridan farqli ravishda Italiyada qaynonalar kelinlari o‘zlarining xizmatlarini qilishini talab qilmaydi. Biroq o‘g‘lining rafiqasi qanday kiyinishi, qanday bo‘yanishi, nimalarni xarid qilishi bilan qiziqishga haqli ekanini bot-bot eslatib turadi. Bu quruq gap emas. Agar kelin qaynonaning

³ www.ziyo.com

nasihatlariga amal qilsa nur ustiga a'lo nur. Aks holda qaynonaning g'azabiga duchor bo'lishi turgan gap. Agar kelin qaynona bilan birga yashaydigan bo'lsa, bu kabi baxt har kimga ham nasib qilavermaydi. Italiyalik qaynona bilan tortishishning mutlaqo iloji ham, imkoni ham yo'q. Faqat qaynonagina kelini va o'g'li qanday baxtli hayot kechirishini biladi.

Norvegiyada yoshlar allaqachon ota-onalaridan alohida yashashga o'rganib bo'lishdi. Oilada kattalar va kichiklar o'rtasidagi munosabatlar tenglik asosiga qurilgan. Shu sababli ham bu mamlakatda kelinlar qaynonalaridan biror bir maslahat yoki topshiriq olishga odatlanmagan. Kelinlarning o'zлari ham ko'mak so'rab qaynonalariga murojaat qilishmaydi. Yoshlar o'z muammolarini o'zлari hal qiladi. Mabodo qandaydir muammo paydo bo'lib qolsa, kelin-kuyovlar ota-onalariga emas, balki psixologga yordam so'rab, murojaat qilishadi. Kelin erining yaqin qarindoshurug'lari bilan kamdan-kam hollarda - unda ham oilaviy tadbirlarda uchrashadi.

Qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarda muammolar va o'zaro tushunishning etishmasligi odatdagidan ko'proq. Albatta, ular o'rtasida "do'stlik" uchun universal retseptlar mavjud emas - har bir vaziyat o'ziga xos usullarga muhtoj. Quyida qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilovchi bir nechta maslahat va takliflar berib o'tishni joiz deb bildik:

Agar siz qaynonangiz bilan samimiy suhbat qurishga qaror qilsangiz, u holda **uning fikri va istaklariga e'tibor berishga harakat qiling**, tajovuzkor ohangga yo'l qo'y mang va birgalikda muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topishga harakat qiling.

Qaynona ham ayol ekanligini unutmang. Qaysi ayol e'tibor va sovg'alardan erimaydi? Uning hurmatini qimmat narsalar bilan sotib olishning hojati yo'q, lekin **kichik iltifot sizning munosabatingizni ancha yaxshilashi mumkin**.⁴

Qaynonangiz ona bo'lgani, yoshi ulug'ligi, tajribasi kattaligi, sizdan donoroq, tadbirliroq bo'lgani uchun ham uning izzat-hurmatini joyiga qo'ying. O'zingizni aslo katta tutmang, itoatsizlik ko'rsatmang. Chunki onaning o'g'lidagi haqlari bisyor. Bir kishi Abu Dardonning (r.a.) huzuriga kelib: «Onam xotinimni taloq etishimni talab etyapti», dedi. Abu Dardo unga bunday javob qildi: «Rasululloh (s.a.v.): «Ona jannatning o'rtasidagi bir eshik. Xohlasang, o'sha eshikni boy ber, xohlasang, saqlab qol», deb aytganlar».⁵

Nima ish qilmoqchi bo'lsangiz, qaynona bilan maslahatlashing, mablag'ingizni qaynona bilan kelishib xarjlang, tejamkor bo'ling. Chunki u ro'zg'orning pastbalandini, oila sarfiyotini, qattiqquruqni sizga qaraganda yaxshiroq biladi. O'zboshimchalik, itoatsizlik, pala-partishlik o'rtadagi muhabbatni barbod qiladi.

Ota-onangizni sog'inib uyingizga yoki biror ma'rakaga bormoqchi bo'lsangiz, avval qaynonangizdan (qaynotangizdan), so'ngra eringizdan ijozat so'rang. Bu bilan

⁴ „Qaynona va kelin munosabatlari“ statistik tahlil

⁵ „Hadislar“

kattalarni hurmat qilgan, ularning ko‘nglini topgan bo‘lasiz. Chunki Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ota-onaga itoat etmoqni namozni vaqtida o‘qishdan keyingi Alloh taologa eng mahbub (sevikli) amal, deb hisoblaganlar.

Mana, muhtaram kitobxon, oila farog‘ati, xususan, qaynona-kelin muammosi haqida imkoniyat qadar so‘z yuritdik, donolarning pand-nasihatlaridan voqif etdik. To‘g‘ri, birgina bu risola oila, Yevropa va Osiyoda qaynona-kelin munosabatlardagi barcha savollarga javob beradi, degan fikrdan yiroqmiz. Hayotimizda ko’rib turgan ba’zi narsalar bilan o’rtoqlashdik xolos.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. www.ziyo.com
2. Ahmad Mahmud Tursun „Qaynona va kelin”
3. „Hadislar”
4. „Qaynona va kelin munosabatlari” statistik tahlil